

## **METAFORA HAQIDAGI QARASHLARNING TARAQQIYOT YO’LI**

**Abduraxmonova Asila Asliddin qizi**  
**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti**  
**Email: [asilaabdurakhmonova04@gmail.com](mailto:asilaabdurakhmonova04@gmail.com)**

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21201053>**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada metafora hodisasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Metafora haqidagi dastlabki qarashlar qadimgi yunon faylasuflari, xususan Aristotel ta’limoti asosida yoritilib, keyingi davrlarda yuzaga kelgan lingvistik va adabiy yondashuvlar ko’rib chiqiladi.

**Kalit so’zlar:** metafora, kognitiv lingvistika, konseptual metafora, Aristotel, til va tafakkur, metafora nazariyasi, konsept, semantika, lingvistik tadqiqotlar, kognitiv yondashuv.

Til asrlar mobaynida insonning ehtiyojlarini muloqot orqali osonlashtirish vositasi hisoblangan bo’lsa, bugungi kunda unga badiiy-estetik hissiyotlarni aks ettiruvchi madaniyat belgisi sifatida ham qaralmoqda. Zamonaviy tilshunoslik ham yozma, ham og’zaki muloqot tomonlama borgan sari qulay va tushunarli ko’rinishga kelmoqda. Dunyo olimlari tilni har jabhada tadqiq etar ekan, u shunchaki muloqot vositasi emas balki aqliy faoliyat ekanini ta’kidlashmoqda. Insonga xos kreativ tafakkur hosilasi bo’lgan metaforalarning nutq bezagi ekanligi hech birimizga sir emas, ammo endi u ushbu vazifasidan ham ko’ra ko’proq insonning obrazli tafakkuriga xos mental jarayonlardan biri ekanligi umumtilshunoslikda e’tirof etilmoqda. Jumladan, amerikalik tilshunos, professor George Lakoff va faylasuf, kognitiv fanlar olimi Mark Johnsonlarning fikriga ko’ra: “Metafora biz kundalik muloqotda foydalanadigan so’z ma’nosining shunchaki boyitilgan, bezak berilgan ko’rinishi emas, balki u til va miya faoliyatining birlashgan nuqtasini ko’rsatib bera oladigan vositadir”. Ma’lumki metafora tabiatiga, turg’unlik yaxlit obrazni modellashtirishdagi qulaylik, mavhumlikni atash, nomlab berish (metafora – ong osti hodisalari, bilimlar majmuining tarjimoni sifatida), ekspressivlik (metafora – mantiqiy qoidalarga bo’ysunmaydigan axborotni his-tuyg’ular boshqaradigan ko’lamga kuchli ta’sir etish orqali yetkazuvchi obraz), jamoaga xos ijodkorlik harakteri xosdir. Oddiy tilga qaraganda, metafora muloqot jarayonini poetik va ritorik jihatdan boyitib beradi. Metafora nafaqat odatiy til harakteristikasini, balki o’y va tafakkurimizdagi fikrlarimizning ahamiyatini matn yoki og’zaki nutqda osongina ochib bera oladi.

Metafora tarixiga nazar soladigan bo’lsak, uni bir necha davrlarga bo’lishimiz mumkin. Metafora vujudga kelish davrining birinchi bosqichida u ritorik va stilistik jihatdan o’rganilgan bo’lib, mil.avv IV asrlarda Aristotel metafora nutqimizni poetik va badiiy holatga keltiruvchi vosita deb hisoblagan. Ushbu nazariyaga ko’ra metafora bir nomni jinsdan turga, turdan jinsga va turdan-turga o’tkazish yoki analogiya orqali gaplarda qo’llanilishi mumkinligi keltirib o’tilgan. Bunga misol sifatida Aristotel “There lies my ship” gapini tahlil qilar ekan yotmoq fe’li inson, hayvon yoki jonzotga xos bo’lgan bir paytda, qayiq yotishi ma’no o’xshatilishini hosil qiladi (qayiq yotmaydi balki biror joyda turadi yoki joylashgan bo’ladi). Yotmoq fe’li jinsdan turga ko’chdi deganda obyekt (kema)ni tasvirlayotgani hayolimizga keladi. Ushbu gap poetik nuqtai nazardan o’quvchini o’ziga jalb qila oladi.

Kvintilian ushbu nazariya ustida yana ham chuqurroq izlanish olib boradi va metaforaning o’xshatish bilan o’rtasidagi farqga oydinlik kiritadi. Jumladan o’xshatishda

taqqoslash ochiq holda ikki predmet saqlangan holda bo'ladi, metforada esa bir narsa ikkinchisining o'rnini bosadi, qisqa ammo kuchli ma'no hosil bo'ladi. Ushbu fikrga misol orqali to'xtalib o'tishimiz ham mumkin:

U arslon kabi ish qildi (simile – o'xshatish). U arslondir (metafora)

Kvantilian fikriga ko'ra metafora tropslar Ichida eng keng tarqalgani va eng go'zalidir. Metafora nutqni boyitishi bilan birga, mavjud so'z yo'q bo'lgan tushunchalarga nom beradi va tilni ziynatlab beradi. Kvintilian metaforaning 4 turi haqida ham to'xtalib o'tadi;

1. Jonli – jonli: bir tirik mavjudot boshqasining o'rnida ishlatiladi – odam hayvon sifatida, hayvon odam yoki boshqa hayvon sifatida yoki biror kasb Vakili boshqa bir kasb egasi sifatida tasvirlanishi mumkin. Bu eng keng tarqalgan metafora turi hisoblanib eng tabiiysi sifatida e'tirof etiladi.

Misol: Boshqaruvchi ot bo'ynini burib qaytdi (dengiz boshqaruvchisi otni burib qaytdi). Arava boshqarish va kema boshqarish – ikki alohida faoliyatlar hisoblanadi. Lekin shoir ikkalasini birlashtirib, bir obraz yaratadi: “steersman” (dengizchi/boshqaruvchi) – kema terminini ishlatib, ot boshqarishini tasvirlaydi. Ikki jonli mavjudot (arava haydovchi va kema boshqaruvchisi) bir-birining o'rnida.

2. Jonsiz – jonsiz: bir jonsiz narsa boshqasining o'rnida ishlatiladi.  
Misol: Flotga jilov berdi. Jilov otni boshqarish asbobi. Flot esa kemalar. Har ikki predmet jonsiz. Ammo jilov so'zi dengiz safarini otda yurishga o'xshatib, harakatga tartib, yo'nalish va nazorat hissini beradi. Agar ushbu gapni “yelkanga shamol tegdi” gapi bilan almashtirsak, ushbu gap ko'pshilik eshituvchi yoki o'quvchilarda his-hayajon uyg'otmagan bo'lar edi.

3. Jonsiz – jonli: jonsiz predmet jonli narsaning o'rnini bosish uchun ishlatiladi.  
Misol: Argivlar qal'asi – qilich bilan yiqildimi yoki taqdir bilan? Qal'a – jonsiz istehkom. Lekin bu yerda u Argivlar qo'shini – tirik, kurashuvchi odamlar o'rnini egallamoqda. Qal'a “yiqilishi”: jonli mavjudotga xos harakat jonsiz narsaga ko'chirilgan.

4. Jonli – jonsiz: eng ulug'vor tur hisoblanib, jonsiz turga hayot baxsh etilib, harakat imkoniyati beriladi.

Misol; ko'prikn mensimagan Araks daryosi. Daryo – jonsiz tabiat hodisasi deb hisoblangan bir vaqtda, Vergiliy unga g'urur va nafrat beradi: daryo ko'priq qurilishini izza qilib, uni yiqitadi. Bu shunchaki kuchli oqim emas – bu isyonkor irodadir. Jonlantiruvchi fe'l mensimadi/izza qildi – bu faqat ongga xos his-tuyg'udir.

Metaforani rivojlanish bosqichining II davri XVIII – XIX asr o'rtalari hisoblanib, ushbu davrni epistimologik - tanqidiy davr deb ataymiz negaki, ushbu davrda John Locke, Thomes Hobbes, Friedrich Nietzsche kabi olimlar tomonidan metafora nutqda tanqid ustiga olinadi. Olimlar metafora og'zaki va yozma nutqda berilayotgan ma'noni tushunishda qiyinchilik tug'dirishi haqida to'xtalishadi. Xususan, John Locke “An essay concerning human understanding” kitobida metafora shunchaki zavq beruvchi xolos, aslini olganda ma'no tushuntirishda bizni chalg'itadi, metafora odamni aldovchidir deya tavsiflaydi (Book 3, Chapter 10). Hobbes nazariyasi qisman Lockenikidan farq qiladi, Hobbes metafora mantiqni buzishi haqida aytsa, Locke metaforani hukmni chalg'ituvchisi deb hisoblaydi. Bu jarayonda Hobbes metaforani siyosiy-falsafiy xavfliligi haqida ham fikr bildirib o'tgan.

Metafora o'rganilishining uchinchi davri XX asr boshlaridan 1970-yillargacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga olib, ushbu davrda olimlar uni semantik jihatdan tahlil qilishadi. Ushbu davrning tilshunos olimlari I. A. Richards va Max Black metafora so'zlarga poetik bezak



berishdan ko‘proq vazifa bajarishi haqida yozishadi. Xususan, I. A. Richards Aristotel nazariyasini tahlil qilar ekan, metaforani o‘xshatishning eng yaxshi ko‘rinishi deya tavsiflaydi. O‘xshashlik ko‘zi ba’zi odamlarda bor bo‘lgan tug‘ma talant hisoblanadi. Ammo biz barchamiz o‘xshatish ko‘zlarimiz orqali gapiramiz va yashaymiz. Metafora tilning alohida va o‘zgacha qismi emas, balki til va fikrning markaziy qismi sifatida tahlil qilinadi. Metafora faqat poetik va she’riy satrlarda emas balki, oddiy nutqda ham qo‘llanuvchi, fikr yuritish va ifodalashning tabiiy usuli sifatida ko‘riladi – biz hamma narsani bir mavhum tushunchani boshqa bir tushunchaga bog‘lab tushunamiz. Richards metaforani asosiy ikki qismga ajratib, asosiy tushuncha va g‘oyani beruvchi so‘zni TENOR, aytilayotgan asosiy fikrni ifodalovchi obrazli so‘z yoki iborani esa VEHICLE deb nomlaydi.

Metafora inson tafakkuri va tilining ajralmas qismi bo‘lib, uning talqini tarix davomida sezilarli darajada rivojlangan. Dastlab badiiy-uslubiy vosita sifatida qaralgan metafora bugungi kunda kognitiv lingvistikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biriga aylangan. Zamonaviy yondashuvlar metaforaning nafaqat nutqni bezash, balki insonning borliqni anglash va konseptuallashtirish jarayonida ham muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shu sababli metaforani o‘rganish til va tafakkur o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

**Adabiyotlar ro‘yhati:**

1. I. A. Richards. The philosophy of rhetoric. – New York: Oxford university press, 1936. –139b
2. Thomas Hobbes. Leviathan. – Cambridge: Cambridge university press, 1991. –445 b
3. John Locke. An essay concerning human understanding. – London: Thomas Bassett, 1960. – 693 b
4. Maxmaraimova Sh. O‘zbek tili metaforalarining atroposentrik tadqiqi (nominativ aspekt). Fil.f. d. diss. – S., 2020. – 258 b.
5. George L, Mark J. Metaphors we live by. – Chicago: University of Chicago press, 1980. – B.3